

Egamova Ravshanoy Surobjonovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING DIDAKTIK TA'MINOTINI AMALGA OSHIRISH MODELINI ISHLAB CHIQISH

UO'K: 372.8

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_3_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_3_8)

EGAMOVA R.S. BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING DIDAKTIK TA'MINOTINI AMALGA OSHIRISH MODELINI ISHLAB CHIQISH

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida sinfdan tashqari ishlarda turli usullar, interaktiv metodlar, ta'limiy interfaol o'yinlar, ulardan foydalanish uslubi, ahamiyati batafsil yoritilgan. Ushbu maqoladagi barcha metod va ta'limiy o'yinlar dars jarayonida qo'llanilib, amaliyotda sinalgan. XXI asrning 4K moduliga (kommunikativlik, kollabaratsiya, kritik, kreativlik) asoslangan holda o'quvchilarning zamon talablariga mos ravishda bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kommunikativlik, kollabaratsiya, kritik, kreativlik, texnologiya, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, ta'limiy interfaol o'yinlar, ijodiy qobiliyat, kasb - hunar, texnika, tarbiya.

ЭГАМОВА Р.С. РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РЕАЛИЗАЦИИ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В данной статье подробно описаны различные методы, интерактивные методы, обучающие интерактивные игры, способ их использования и значение во внеклассной деятельности на уроках технологии в начальной школе. Все методы и развивающие игры, представленные в этой статье, используются в ходе урока и проверены на практике. Основанный на модуле 4К XXI века (коммуникативный, совместный, критический, творческий) он помогает учащимся приобретать знания, навыки и умения в соответствии с требованиями времени.

Ключевые слова и понятия: общение, сотрудничество, критика, творчество, технология, педагогическая технология, интерактивные методы, обучающие интерактивные игры, творческие способности, профессия, техника, образование.

EGAMOVA R.S. DEVELOPMENT OF A MODEL FOR IMPLEMENTING DIDACTICAL SUPPORT OF EXTRA-CLASSROOM WORK IN TECHNOLOGY LESSONS IN PRIMARY CLASSES

This article describes in detail various methods, interactive methods, educational interactive games, the way they are used and their importance in extracurricular activities in technology lessons in primary school. All methods and educational games presented in this article are used during the lesson and tested in practice. Based on the 21st century 4K module (Communicative, Collaborative, Critical, Creative), it helps students acquire knowledge, skills and abilities in accordance with the demands of the times.

Key words and concepts: communication, cooperation, criticism, creativity, technology, pedagogical technology, interactive methods, educational interactive games, creativity, profession, technology, education.

Ishning dolzarbligi. Jahonda informat-sion va g'oyaviy kurashlar jarayoni keskinlash-gan murakkab davrda yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish ularda ijtimoiy hayo-tga ongli munosabatni tarkib toptirish orqali ma'naviy tarbiyasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Rossiya, AQSH, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi rivojlangan davlatlar ta'lim muassasalarida kreativ texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini shakllanti-rish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, yangi ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish, ta'lim paradigmalari va texnologiyalarini inte-gratsiyalash jarayonlarini mediatexnologiyalarn-ing konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik va samaradorlik talablariga moslashtirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga doir keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida yoshlarni tarbiyalashning innovatsion va pragma-tik muammolari, zamonaviy ta'lim-tarbiya jaray-onlarini axborotlashtirish, axborotlarni qabul qil-ishning pedagogik va psixologik asoslari hamda ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish, masofaviy ta'limni amalga oshirish, mediata'lim texnologiyalarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini rivojlanti-rish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarning qisqacha tahlili. Respublikamizda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning nazariy asoslari, amaliy jihatlar, uning usul va shakllari mahaliy olimlar Sh.Mardonov, A.Xalikov, A.Sadikova, F.Ibragimova, N.Artikova, J.Abdusamatov, R.Shermatov, O.Norbadalov, E.Noquvvatovlar

tomonidan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotchilar sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish qilishning nazariy va amaliy jihatlarini eritishda muayyan fan nuqtai nazaridan yondashgan. Ammo ularda ta'lim bosqichlarida, xususan, boshlang'ich ta'limda ushbu masalaning amaliyotga joriy etili-shi yetarli darajada yoritilmagan. Ma'naviy tar-biyaning asoslari, shaxsni milliy tarbiyalashda ma'naviyatning o'rni masalalari R.H.Jo'raev¹ [67], J.G.Yo'ldoshev² [88], O.Musurmonova³ [30], B.S.Abdullayeva⁴ [43], M.Quronov⁵ [185], U.I.Mahkamov⁶ [108], Sh.S.Shodmonova⁷ [174], A.T.Nurmanov⁸ [120], Sh.Q.Mardonov⁹ [103],

¹ Djurayev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – T.: 2010. – B.76.

² Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 2004. – B. 7-9..

³ Musurmonova O., Jamoldinova O. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani yoshlarning sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda muhim omil // Xalq ta'limi. – T.: 2010, № 1. – B.4-11.

⁴ Abdullayeva B.C. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent: TDPU, 2006. –263 b.

⁵ Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat. 2007. – B. 240..

⁶ Mahkamov U. Axloq – odob saboqlari. – T.: Fan. 1994. – B. 135..

⁷ Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari. –Ped. fan. nomz.... dis. avtoref. – T.: O'zPFITI. 2001. – B. 19.

⁸ Nurmanov A.T.Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayorlashning pedagogik imkoniyatlari. (auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida).:Avtoref. dis. ped.fan.dok. (DSc). – T.: 2017. – B. 86..

⁹ Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. dok. – T.: 2006. – B. 196.

N.H.Kushvaqtoy¹ [28]lar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda axborot-kommunikatsion va mediatexnologiyalarning ahamiyati hamda ulardan foydalanish omillari A.A.Abduqodirov² [47], N.I.Tayloqov³ [23], U.Sh.Begimqulov⁴ [57], X.A.To'raqulov⁵ [190], C.S.Babadjanov⁶ [55], H.Sh.Qodirov⁷ [90], X.X.Nekboev⁸ [118], O.X.To'raqulov⁹ [149], A.Haydarov¹⁰ [188], J.A.Hamidov¹¹ [187], Sh.S.Sharipov¹² [173], O'.K.O'tanov¹³ [183]larning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotning maqsadi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida sinfdan tashqari ishlarda turli usullar, interaktiv metodlar, ta'limiy inter-

faol o'yinlar, ulardan foydalanish uslubi, ahamiyatini batafsil yoritish.

Tadqiqotning vazifalari: Boshlang'ich ta'lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish, ularga rioya qilishga o'rgatiladi.

- texnologiya ta'limida sinfdan tashqari ishlarni didaktik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarni o'rganish, ularni amaliyotda tatbiq etish hamda maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; - maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya mazmunini muntazam yangilab borish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba sinovi asosida baholash.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, modellashtirish, suhbat, anketa so'rovlari, testlar, tajriba-sinov, matematik statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullar.

Tadqiqot obyekti. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limida sinfdan tashqari ishlarni didaktik ta'minotini yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar foydalanish.

Tadqiqot predmeti. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limida sinfdan tashqari ishlarni didaktik ta'minotini yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar foydalanish jarayonining mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot natijalari va asosiy mazmuni.

Boshlang'ich ta'lim DTS dasturida boshlang'ich ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olishi, o'zgarlar fikrini anglash o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish.

¹ Kushvaqtoy N.X.O'rolov D, Suyunova D. Yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish- Ta'lim tizimida ijtimoiy – gumanitar fanlar. 2014 y.

² Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B. 104..

³ Djurayev R.X., Tayloqov N.I. Axborotlashgan ta'lim muhiti o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta'lim. – T.: 2004. №3. – B. 3-7.

⁴ Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fan. dok. diss.– T.: 2007. – B. 305.

⁵ Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O. A., Kushvaqtoy N.X. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. Uslubiy qo'llanma. – Jizzax.: 2007. – B. 116.141

⁶ Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fan. dok. diss.– T.: 2007. – B. 305..

⁷ Kadirov H.Sh. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi. // Ped. fan. bo'y. dok. Diss (DSc).– T.: 2020. – B. 240..

⁸ Nekboyev X.X. Bo'lajak o'qituvchilarda mediata'lim texnologiyalari asosida kasbiy-tanqidiy yondashuvni takomillashtirish. // Ped. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss.– Qarshi. 2019. – B. 140.135.

⁹ To'raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish. Ped. Fan. bo'yicha doktorlik (DSs) ... diss. avtor. – T.: 2017. – B. 64.

¹⁰ Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. –T.: Muharrir. 2008. – B. 96.

¹¹ Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi // Ped. fan. bo'y. dok. diss (DSc).– T.: 2017. – B. 259.

¹² Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti.: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. Toshkent.: TDP. 2012. – B. 27..

¹³ O'tanov O'.Q. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi. – ped.fan. dok. (PhD)diss. – T.: 2018. – B. 153.

lantirishga jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarni his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda 4 K moduli asosida ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Mana shunday ko'rsatkichlarga erishish uchun darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

"Menga so'z bering" usulining texnologiya fanida sinfdan tashqari ishlarda qo'llanilishi bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar metodning samaradorligini oshirish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Har bir bosqich o'ziga xos vazifalar va metodologiyalarni taqdim etadi, bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Birinci bosqich, tayyorgarlik va rejalashtirishdir. Bu bosqichda o'qituvchi "Menga so'z bering" usulini qanday qilib amalga oshirishini belgilaydi. O'qituvchi o'quvchilar uchun qiziqarli va dolzarb mavzularni tanlashi kerak. Ushbu mavzular o'quvchilarning qiziqishlarini, bilim darajasini va maqsadlarini hisobga olgan holda tanlanadi. O'qituvchi shuningdek, faoliyatni qanday tashkil etish, vaqtni qanday taqsimlash va o'quvchilarni qanday qilib rag'batlantirish haqida reja tuzishi zarur. Bu bosqichda o'qituvchi o'zining pedagogik maqsadlarini aniqlaydi va o'quvchilarning ushbu usulni qanday qabul qilishini oldindan bashorat qiladi.

Ikkinchi bosqich, faoliyatning o'zini o'tkazishdir. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga beriladigan so'zlarni tanlaydi va ushbu so'zlar atrofida muhokamalar, guruh ishlari yoki ijodiy faoliyatlar tashkil etadi. O'quvchilar berilgan so'zlar asosida o'z fikrlarini ifoda etishlari, ijodiy yondashuvlarni qo'llashlari va yangi g'oyalarni ishlab chiqishlari kerak. O'qituvchi o'z navbatida, o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirishi, ularning fikrlarini tinglashi va har bir ishtirokchini qiziqish bilan kuza-tishi juda muhimdir. Ushbu faoliyat davomida o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, o'z bilim-larini yanada kengaytiradilar va bir-birlaridan yangi narsalarni o'rganadilar.

Uchinchi bosqich, baholash va tahlil qilishdir. Faoliyat tugagach, o'qituvchi o'quvchilarning ishtirokini, fikrlarini va baholashlarini tahlil qiladi. Bu bosqichda o'qituvchi o'z pedagogik strategiyasini baholashi va kelajakdagi faoliyatlar uchun takliflar ishlab chiqishi kerak. O'quvchilardan fikr olish, ularning tajribalarini muhokama qilish va o'zaro fikr almashish jarayonida o'qituvchi o'z metodikasini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu tahlil qilish jarayoni, o'qituvchining o'z faoliyatini rivojlantirish va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan yangi yondashuvlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchi bosqich, o'quvchilarni rag'batlantirish va ularga qayta aloqa berishdir. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyatga nisbatan qanday munosabatda bo'lganlarini va qaysi jihatlar ularni qiziqtirganini bilish uchun rag'batlantiruvchi tizimni ishlab chiqishi zarur. Bu jarayon o'quvchilarning o'z-o'zini baholashiga, shuningdek, o'z bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Shu tarzda, "Menga so'z bering" usulining texnologiya fanida sinfdan tashqari ishlarda qo'llanishi bir qator aniq bosqichlarni o'z ichiga oladi. Har bir bosqich o'qituvchilar va o'quvchilar uchun o'zaro aloqalarga, ijodiy fikrlashga va o'z-o'zini rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. O'z o'rnida, bu usul o'quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samara beruvchi qiladi.

"Menga so'z bering" usulining amaliy misollari texnologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning faolligini oshirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qiziqarli va samarali faoliyatlarni o'z

ichiga oladi. Ushbu usuldan foydalanish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini ochiq ifodalash, muammolarni hal qilish va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Quyida bu usulni qo'llashning amaliy misollarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi misol sifatida, texnologiya fanida o'quvchilar bilan birgalikda loyiha ishlari olib borishni keltirish mumkin. O'quvchilar guruhlarga bo'linib, har bir guruhga bir-biridan farq qiluvchi so'zlar beriladi, masalan, "innovatsiya", "texnologiya", "loyiha" va "hamkorlik". Ushbu so'zlardan kelib chiqib, o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan biror loyiha ustida ishlashadi. Har bir guruh o'z g'oyalarini, qiyinchiliklarini va yechimlarni muhokama qiladi, bu esa ularning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu jarayon davomida o'quvchilar o'z fikrlarini ochiq va aniq ifoda etishga, shuningdek, bir-birlarini eshitish va fikr almashishga o'rganadilar.

Ikkinchi misol sifatida, texnologiya fanida so'zlar asosida o'yinlar o'tkazish mumkin. Masalan, o'quvchilar "Menga so'z bering" usulini qo'llab, berilgan so'zlarni bir-biriga bog'lash orqali hikoya tuzishlari mumkin. Bu o'yin davomida o'quvchilar ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada oshirishadi va o'zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, bu usul o'quvchilarning lug'atini kengaytiradi va ularning o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini takomillashtiradi.

Uchinchi, Texnologiya fanidan foydalanadigan o'quvchilar bilan "Menga so'z bering" usulini qo'llash orqali muammolarni hal etish jarayonini simulyatsiya qiladigan rol o'yinlar o'tkazish mumkin. Masalan, o'quvchilarga biror muammo beriladi, masalan, "qayta tiklanadigan energiya manbalarini qanday yaxshilash mumkin?" Har bir o'quvchi berilgan so'zlar yordamida o'z yechimlarini taklif qiladi, va muhokama davomida o'zaro fikr almashadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi va ularga muammoni turli nuqtai nazardan ko'rish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, "Menga so'z bering" usulini qo'llashda o'quvchilarning ishtirokini oshirish uchun bahslar va munozaralar o'tkazish ham samarali bo'lishi mumkin. O'quvchilarga berilgan so'zlar bo'yicha bahsga kirishish va fikrlarini asoslash imkoniyati beriladi. Bu jarayon o'quvchilarning o'z fikrlarini himoya qilish, mantiqiy fikrlash va muhokama qilish ko'nikmalarini


rivojlantirishga yordam beradi. Yana bir muhim misol sifatida, texnologiya fanidan foydalanib, o'quvchilar bilan ekskursiyalar o'tkazish va o'sha joylarda berilgan so'zlar bo'yicha qiziqarli vazifalar berish mumkin. Masalan, o'quvchilar bir texnologiya ishlab chiqarish korxonasiga borishlari mumkin va ularga berilgan so'zlar asosida korxonaning faoliyatini tahlil qilish vazifasi topshiriladi. Bu jarayon o'quvchilarning amaliy tajribalarini oshirib, o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, "Menga so'z bering" usulini qo'llash amaliy misollari o'quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularga bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini berish bilan birga, ularning muloqot va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu usul orqali o'quvchilar nafaqat bilim olish, balki o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilishni o'rganadilar.

Interfaol metodlar darsda:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi ;,
- o'qituvchi va o'quvchi ortasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlar bo'yicha puxta bilimlarning egallanishining ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Men ham darslarimda interfaol metodlardan foydalanib, o'quvchilarning faol bo'lishlariga, ijodiy, tanqidiy fikrlay oladigan, o'z g'oyalarini erkin bayon eta oladigan shaxslarga aylanishlariga erishdim. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi g'aydalaydi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi.

1-rasm. Darslarimda qo'llaniladigan interfaol metodlar¹.


Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati o'rqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

O'quvchi faoliyatida o'yin orqali quyidagi **kompetensiyalar va 4 K moduli** amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali o'quvchining o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida o'quvchining muloqotga kirishishi ya'ni **kommunikativ**--- muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beradi;
- o'quvchining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish tahlil qilish, mantiqiy aloqalarni shakllantirish, mustaqil xulosa qila olish ko'nikmalarining tarkib topishiga tanqidiy --- **kritik** fikrlashga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish, tasavvur qila olish, qiziquvchanlik, o'z variantlarini ilgari surish, yangi yechimlar va usullarni topish, ijodiy-**kreativ** fikrlashni shakllantirishga imkoniyat yaratadi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlarimizmi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-

madaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot, hamkorlikda ishlash madaniyati --- **kollaboratsiya** (birgalikda ishlash) rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Interfaol metod va o'yinlar bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqlashlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish, hamda mavzularni tez va oson o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi. Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Menga so'z bering" metodikasi nafaqat sinf ichida, balki sinfdan tashqari ishlarda ham keng joriy etilishi kerak. Bu metodika o'quvchilar orasida ijodkorlik, erkin fikrlash va o'zaro hamkorlikni rivojlantiradi. Uni ommalashtirish uchun o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib, ijodiy va interaktiv faoliyatlarni tashkil etish lozim. Shunday qilib, ta'lim jarayonida ushbu metodikani qo'llash o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi va ta'lim sifatini oshiradi.

¹ Radjabova Shoira Xamidovna. Umumta'lim maktablarning „Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish“ bo'yicha metodik qo'llanma // Buxoro -2024

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. //O'quv-uslubiy qo'llanma.(I-qism). Toshkent, 2015. - 160 b; B. 5-6 b.
2. Interfaol ta'lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo'llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov
3. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent "Innovatsiya-Ziyo"-2019-149 bet
4. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi"// Toshkent: "Tib kitob» nashriyoti, 2010. 216 bet.
5. Radjabova Shoiri Xamidovna . Umumta'lim maktablarning „Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish" bo'yicha metodik qo'llanma // Buxoro -2024
6. www.Ziyo.uz